ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

ALOUDDIN OTSIZ DAVRIDA XORAZMSHOHLAR DAVLATI

Ismoilov Maqsudbek
Urdu, magistrant
doi.org/10.5281/zenodo.20514145

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda XII asrda Xorazm o‘lkasining suveren davlatga aylanishida muhim rol o‘ynagan hukmdorAlouddin Otsiz (1127–1156) hukmronlik davrining harbiy-siyosiy holati tahlil qilinadi. Maqolada Otsizning saljuqiylar vassalligidan chiqish yo‘lidagi strategik harakatlari, Sulton Sanjar bilan bo‘lgan geosiyosiy qarama-qarshiliklari hamda sharqdan kelgan qoraxitoylar tahdidiga qarshi yuritgan moslashuvchan tashqi siyosati manbalar orqali ochib berilgani, Otsiz tomonidan amalga oshirilgan ma’muriy-harbiy islohotlar keyinchalik Xorazmshohlarning ulkan imperiyaga aylanishiga qay darajada poydevor bo‘lganini asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Alovuddin Otsiz, Xorazmshohlar geosiyosati, Saljuqiylar inqirozi, Sulton Sanjar, suverenitet uchun kurash, Shimoliy Xorazm, qoraxitoylar istilosi, o‘rta asrlar diplomatiyasi, Gurganj.

Аннотация: В данном исследовании анализируется военно-политическая панорама периода правления Алауддина Атсыза (1127–1156) — правителя, сыгравшего ключевую роль в становлении Хорезма как суверенного государства в XII веке. В статье сквозь призму исторических источников раскрываются стратегические шаги Атсыза по выходу из-под вассальной зависимости Сельджуков, его геополитическое противостояние с султаном Санджаром, а также гибкая внешняя политика в отношении каракитайской угрозы с востока. Автор обосновывает, в какой степени административные и военные реформы Атсыза заложили фундамент для последующей трансформации государства Хорезмшахов в великую империю.

Ключевые слова: Династия Алауддина Атсыза, геополитика Хорезмшахов, кризис Сельджукидов, султан Санджар, борьба за суверенитет, Северный Хорезм, нашествие каракитаев, средневековая дипломатия, Гургандж.

Abstract: This study analyzes the military and political landscape of the reign of Ala ad-Din Atsiz (1127–1156), a ruler who played a pivotal role in the emergence of Khwarazm as a sovereign state in the 12th century. Through the prism of historical sources, the article sheds light on Atsiz's strategic maneuvers to break free from Seljuk vassalage, his geopolitical confrontation with Sultan Sanjar, and his flexible foreign policy in response to the Kara-Khitan threat from the east. The author demonstrates the extent to which Atsiz's administrative and military reforms laid the groundwork for the subsequent transformation of the Khwarazmian state into a vast empire.

Keywords: Ala ad-Din Atsiz dynasty, Kharazmian geopolitics, Seljuk crisis, Sultan Sanjar, struggle for sovereignty, Northern Kharazm, Kara-Khitan invasion, medieval diplomacy, Gurganj.

KIRISH

O‘rta asrlar Sharq davlatchiligi tizimida Xorazm vohasi o‘zining geosiyosiy o‘rni, sermahsul iqtisodiy resurslari va harbiy-strategik salohiyati bilan hamisha markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Anushteginiylar sulolasi boshqaruvi ostida shakllangan Xorazmshohlar davlatining mustaqil siyosiy subyekt sifatida xalqaro maydonga chiqishi to‘g‘ridan to‘g‘ri Alouddin Otsiz (1128–1156) nomi va uning uzoqni ko‘zlagan islohotlari bilan bog‘liqdir. Otsiz taxtga o‘tirgan davr mintaqada buyuk siyosiy siljishlar va yangi kuchlar muvozanati yuzaga kelayotgan o‘tish bosqichiga to‘g‘ri keldi. Bir tomondan, Saljuqiylar sultonligi Sulton Sanjar hukmronligi ostida o‘z qudratining so‘nggi cho‘qqisida

turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Sharqiy Osiyodan siljib kelgan qoraxitoylar omili mintaqadagi an’anaviy siyosiy arxitekturani parchalab tashlash arafasida edi.[1] Bunday tahlikali va murakkab sharoitda Xorazm viloyatini Saljuqiylar imperiyasining oddiy bir vassalidan mustaqil, suveren va qudratli saltanatga aylantirish ulkan davlatchilik tafakkurini talab etardi. Alouddin Otsiz o‘zining o‘ttiz yillik hukmronligi davomida aynan mana shu tarixiy vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun poydevor yaratdi.[2] Mazkur mavzuni tizimli o‘rganish o‘zbek milliy davlatchiligi poydevorini, uning diplomatiya va harbiy san’at an’analarini tahlil qilish jihatidan yuksak ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA VA MANBALAR SHARXI

Ushbu tadqiqot ishini yoritishda tarixiy voqelikni xolis baholash, qiyosiy-sinxron tahlil, voqea va hodisalarni xronologik izchillikda o‘rganish hamda retrospektiv tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Mavzuning manbaviy asosi sifatida XII-XIII asrlarda yashab ijod qilgan va jarayonlarning bevosita guvohi bo‘lgan yoki davr hujjatlaridan foydalangan arab hamda fors mualliflarining asarlari jalb etildi. Xususan, Izzuddin Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” asari Saljuqiylar va Xorazmshohlar o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar dinamikasini aniq faktlar asosida yoritishga xizmat qiladi. Sadriddin al-Husayniyning “Axbor ad-davlat as-saljuqiya” asari esa saljuqiylar saroyidagi siyosiy kayfiyatni va Otsiz xatti-harakatlariga nisbatan imperiya markazining munosabatini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” asari Xorazmshohlar saroyidagi ichki ijtimoiy-siyosiy muhitni, islohotlar mazmunini va Otsizning shaxsiy xislatlarini ochib beruvchi eng ishonchli asarlardan biri bo‘lib xizmat qildi. Zamonaviy istoriografiyada V.V. Bartold, S.P. Tolstov, shuningdek, mahalliy olimlardan B. Ahmedov hamda S. G‘ulomovlarning tadqiqotlari ushbu davrni iqtisodiy va madaniy jihatdan tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. 1128-yilda Qutbiddin Muhammad vafotidan so‘ng, uning vorisi Alouddin Otsiz saltatnat jilovini o‘z qo‘liga oldi. Garchi u dastlab Sulton Sanjar tomonidan an’anaviy “Xorazmshoh” unvoni bilan tasdiqlangan va uning oliy hokimiyatini tan olgan bo‘lsa-da, ichki siyosatda mutloq mustaqillikka erishish choralarini ko‘ra boshladi. Otsiz yoshligidan davlat boshqaruvi akademiyasini o‘tagan, chuqur intellektual salohiyat egasi bo‘lishi barobarida, adabiyot va madaniyat homiysi ham edi.[3] Hokimiyatni mustahkamlash maqsadida u birinchi navbatda harbiy islohotga qo‘l urdi. Mavjud tartibsiz lashkarlar o‘rniga atrofdagi qipchoq, kangli va o‘g‘uz qabilalarining harbiy elitasi bilan ittifoq tuzib, markaziy hokimiyatga so‘zsiz bo‘ysunuvchi muntazam armiyani shakllantirdi. Iqtisodiy jabhada esa Sirdaryoning quyi oqimi va Kaspiy dengizi bo‘yidagi xalqaro savdo yo‘llari hamda strategik muhim karvon yo‘llari Xorazm nazoratiga o‘tkazildi. Davlat poytaxti Gurganj shahri qisqa muddatda nafaqat mintaqaviy hunarmandchilik markazi, balki Shimoliy xavfsizlik va savdoning bosh chorrahasiga aylandi. Soliq tizimining tartibga solinishi va devonlar (vazirliklar) faoliyatining markazlashtirilishi ichki barqarorlikni ta’minlab, tashqi tahdidlarga qarshi turish uchun iqtisodiy zamin yaratdi. Otsiz yuritayotgan mustaqil ichki va tashqi siyosat tez orada Xorazmning nominal hukmdori bo‘lmish Sulton Sanjarning keskin qarshiligiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Xorazmshohning Sirdaryo havzasidagi butparast turkiy qabilalar ustiga mustaqil ravishda harbiy

[1] G‘ulomov S. Xorazmshohlar davlati tarixi (XI-XIII asrlar). – Toshkent: Fan, 2012. 45-49b

[2] Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo shestviya. Sochineniya. T. II. Ch. 1. – Moskva, 1963.

[3] Alovuddin Otamalik Juvayniy. Tarixi jahongushoy. – Toshkent: Sharq, 2004.

Ibn al-Asir. Al-Kamil fit-tarix (Mukammal tarix). / Tarjimon: Sh. Zohidov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.

yurishlar uyushtirishi imperiya markazida ayirmachilik harakati sifatida baholandi. O‘zaro ziddiyatlar 1138-yilda ochiq urushga aylanib ketdi. Sulton Sanjar ulkan qo‘shin bilan Xorazm hududiga bostirib kirdi. Hazorasp qal’asi yonida ro‘y bergan dahshatli jangda Otsizning nisbatan tajribasiz qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi. Sulton Sanjar bu isyonga chek qo‘yish maqsadida Otsizning o‘g‘li Otlig‘ni vahshiylarcha qatl ettirdi va mamlakat boshqaruvini o‘z jiyani Sulaymonshohga topshirib, Marvga qaytdi.[4] Biroq, Xorazm xalqining Saljuqiylar noiblariga nisbatan kuchli nafrati va ichki birdamligi tufayli Sulaymonshoh hokimiyati uzoqqa bormadi.[5] Sulton qo‘shinlari ketishi bilanoq aholi qo‘zg‘olon ko‘tardi va Otsiz 1141-yilda Gurganj taxtini qayta tikladi. 1141-yilning kuzida sodir bo‘lgan mashhur Katvan jangi mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni butunlay o‘zgartirib yubordi. Samarqand yaqinida G‘orxon boshchiligidagi qoraxitoylar Sulton Sanjarning asosiy armiyasini yer bilan bitta qildi. Bu mag‘lubiyat Saljuqiylar imperiyasining parchalanish jarayonini boshlab berdi. Otsiz bu qulay vaziyatni boy bermay, darhol Xuroson tomon yurish boshladi. Marv va Nishopur kabi yirik metropollarni egallab, Saljuqiylar xazinasini o‘z tasarrufiga oldi. Marvdan ko‘plab yirik fan va madaniyat namoyandalari, jumladan, devon kotibi va shoir Rashididdin Votvot ham asir sifatida Gurganjga keltirildi. Bu harakatlar Xorazmning mustaqilligini anglatardi. Alouddin Otsizning tashqi siyosiy strategiyasi o‘ta nozik va ko‘p qirrali diplomatik muvozanat ustiga qurilgan edi. U bir vaqtning o‘zida ikki buyuk imperiya – g‘arbdagi Saljuqiylar va sharqdagi Qoraxitoylar tahdidi qarshisida moslanuvchan diplomatiya yuritishga majbur edi. Otsizning diplomatik mahorati sulton Sanjarning 1143 va 1147-yillardagi keyingi jazo yurishlarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Saljuqiylar qo‘shini poytaxtni qamal qilganda, Otsiz har safar harbiy to‘qnashuvni davom ettirishdan ko‘ra, sovg‘alar berish, vaqtincha itoatkorlik izhor qilish va sulh tuzish orqali dushman armiyasini mamlakatdan chiqarib yuborishga erishardi. Bu esa davlatning moddiy va insoniy resurslarini asrab qolish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alouddin Otsiz faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning Saljuqiylar markaziy hokimiyatiga qarshi kurashi shunchaki betartib isyon yoki separatizm emas, balki chuqur o‘ylangan milliy davlatchilik strategiyasi bo‘lgan.

Birinchidan, u geosiyosiy muvozanat qonuniyatlaridan mahorat bilan foydalandi. Agar u qoraxitoylar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri urushga kirishganda, Xorazm o‘sha davrdayoq sharqiy ko‘chmanchilar ostida qolib ketishi muqarrar edi. Otsiz tayanuvchan va egiluvchan diplomatiya evaziga Xorazm suverenitetini saqlab qoldi. Ikkinchidan, iqtisodiy suverenitetga erishildi – mamlakatda mustaqil oltin pul (dinor) zarb etilishi yo‘lga qo‘yildi, bu esa iqtisodiy mustaqillikning eng oliy belgisi edi.

Uchinchidan, mamlakatda mafkuraviy va madaniy yuksalish yuz berdi. Saroy qoshidagi madaniy elita va ilmiy muhit Xorazmshohlar davlatining mafkuraviy asoslarini yaratib berdi. 1153-yilda Sulton Sanjarning o‘g‘uz qabilalari tomonidan asirga olinishi Saljuqiylar sultonligining tarix sahnasidan ketishini tezlashtirdi. Otsiz ushbu vaziyatdan zudlik bilan foydalanib, Xuroson viloyatida o‘z ta’sirini uzil-kesil o‘rnatishga harakat qildi. G‘arbiy o‘lkalardagi siyosiy bo‘shliqni to‘ldirish orqali u bo‘lajak ulkan imperiyaning hududiy kengayish konsepsiyasini belgilab berdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 1156-yilda Alouddin Otsiz vafot etgan bo‘lsa-da, u qoldirgan siyosiy va harbiy meros mintaqa tarixini tubdan o‘zgartirib yubordi. U o‘zining vorislari – Elarslon va Alouddin Takashlar uchun mustahkam, har tomonlama barqaror va xalqaro maydonda o‘z so‘ziga ega bo‘lgan davlatni qoldirdi. Xorazm oddiy ma’muriy viloyat darajasidan chiqib, mintaqaviy va xalqaro munosabatlarning mustaqil subyektiga aylandi. Mahalliy o‘troq aholi hamda Dashti Qipchoq

---

Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii. – Moskva-Leningrad: AN SSSR, 1948. 781-782b

ko‘chmanchilarining harbiy mahoratini uyg‘unlashtirgan yangi shakldagi armiya tizimi vujudga keldi. Ikki yirik kuch (Saljuqiylar va Qoraxitoylar) o‘rtasida muvozanat saqlay olgan o‘ziga xos milliy diplomatiya strategiyasi shakllantirildi. Otsiz yuritgan strategik siyosat o‘zbek davlatchiligi tarixida milliy mustaqillik uchun kurashish, geosiyosiy vaziyatlardan unumli va to‘g‘ri foydalanish hamda davlat suverenitetini asrash borasida o‘ziga xos mukammal model bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alovuddin Otamalik Juvayniy. Tarixi jahongushoy. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Ibn al-Asir. Al-Kamil fit-tarix (Mukammal tarix). / Tarjimon: Sh. Zohidov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
3. Sadriddin al-Husayniy. Axbor ad-davlat as-saljuqiya. – Moskva: Nauka, 1980.
4. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo shestviya. Sochineniya. T. II. Ch. 1. – Moskva, 1963.
5. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
6. G‘ulomov S. Xorazmshohlar davlati tarixi (XI-XIII asrlar). – Toshkent: Fan, 2012.
7. Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii. – Moskva-Leningrad: AN SSSR, 1948.